

# Boshlang'ich Ta'limda Clil – Yondashuvning Didaktik Imkoniyatlari

*O'rinova Yulduz Tursinniyozevna<sup>1</sup>*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda clil – yondashuvning didaktik imkoniyatlarini zarurati tahlil qilingan. Shuningdek bo'lajak pedagoglarni innovatsion yondashuvlar, zamonaviy bilimlar asosida o'qitishda Clil texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari o'quvchi talaba yoshlarni xorijiy tillarni o'rganishga va fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagog, Clil texnologiyasi, innovatsiya, ilg'or tajribalar, raqamli vositalar, integratsiya, hamkorlikda o'qitish, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar, zamonaviy ta'lim.

**Kirish.** Bugungi kunga qadar ko'plab mamlakatlar CLIL metodologiyasidan amaliyotda muvaffaqiyatli foydalanmoqda, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga o'rgatiladi, o'quvchi yoshlar talabalarga yangiliklar asosida darslar mashg'ulotlar tashkil etish talim jarayonining asosiy qismini egallamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonida [1. 2022] "2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish" masalasi belgilanib, bu borada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875 son "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-aprelda PQ-2909 son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Chet tilini o'rganishga kelsak, "tilshunoslik shaxsiyati" tushunchasi bilan bir qatorda, boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyatining yig'indisi sifatida tushuniladigan lingvodidaktik kategoriyani "ikkinchi darajali lingvistik shaxs" deb hisoblash kerak. Bunday holda, ona va xorijiy tillardan foydalanish parallel ravishda parallel ravishda amalga oshiriladi.

R.K.Minayar-Beloruhev ikkiyuzlamachilik mexanizmini shakllanishining ba'zi xususiyatlarini ta'kidlaydi. Ikki tilning leksik birliklari o'rtasida noto'g'ri ishora aloqalarini yaratish imkoniyati ushbu mexanizmning *birinchi xususiyatidir*. Ikki tili mexanizmning shakllanishining *ikkinchi xususiyati* - chet tilining ona tili bilan bog'liqligi, shuningdek, uning har qanday leksik birlik atrofida hosil bo'lgan tegishli semantik tizim bilan bog'lanishidir [2. 15].

"Language Awareness" – konsepsiyasi "Holistic approach" nomi bilan ham atalib, u ingliz tilini yangi bilimlarni egallash vositasi sifatida o'zlashtirilishi lozimligini targ'ib etadi. Ya'ni boshlang'ich *ingliz*

<sup>1</sup> Axborot texnologiyalar va menejmenti universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi



*tili ta'limining maqsadi* ingliz tili vositasida hayot haqidagi yangi bilimlarni o'zlashtirishdir. Lekin M.Villiams va R.Bednlar Vigotskiyning nutq rivojlanish ontogenezi haqidagi nazariyasini "Holistic approach" deb nomlashni ma'qul ko'rishgan. Ularning taxminicha, Vigotskiy o'rganilishi lozim bo'lgan bilimni kichik qismlarga ajratib, malaka va ko'nikmalar sifatida taqdim etish fikrini ma'qullamagan bo'lardi. Sababi, Vigotskiy har qanday o'rganiladigan qismning asosini mazmun tashkil etishi lozimligini o'qitiradi. Ushbu xulosa ta'sirida Yevropa mamlakatlari, Qo'shma Shtatlar va ingliz tili ikkinchi davlat tili bo'lgan mamlakatlarda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi ommalashmib bormoqda [3. 40]

**Natijalar va ularning tahlili.** CLIL yondashuvi boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning Yoshi va o'quv rejadagi fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, chet tilini maqsadini inobatga olgan holda boshqa fanlar bilan o'zaro uzviylikini taminlash orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chet tillarni o'rganish asnosida o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlar, atrofni va jamiyatni tahlil qilish ko'nikmasi, raqobatlasha olishga ishonmadaniyatlar va an'analarga hurmat hissi, ijodkorlik, yaratuvchanlik va muammoli vaziyatlarda o'ziga ishonch hamda o'z yurti, xalqi va tarixi bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Shu sababli, yurtimiz ta'lim tizimi g'arb va sharq tillari o'qitilishiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda [4. 121]

CLIL ta'lim uchun quyidagi ko'lab imkoniyatlarni taklif qiladi:

1. **Tilni haqiqiy dunyo kontekstida o'rganish;** CLIL darsliklari odatda tabiatshunoslik, tarix, san'at va boshqa mavzularni o'z ichiga oladi. Bu tilni haqiqiy dunyo kontekstidagi o'rganishga imkon beradi, chunki bu mavzular og'zaki (yoki yozma) tilni shakllantirishning samarali usulini taqdim etadi.
2. **O'qitishda mazmuni muhim ahamiyatga ega:** Clil darslari o'quvchilarning bir tilni o'rganishda nafaqat tilni o'rganishga, balki tillar bilan bog'liq bo'lishini ham o'zgartirishga yo'naltirilgan.
3. **Noaniq va yanada samarali yordam:** O'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan o'tkaziladigan o'quv-sinovlarning natijasi shubhasiz, bir vaqtning o'zida bir nechta predmetlar vatillarni o'rganish samarali ekanligini ko'rsatib beradi [5. 2018].

Clil texnologiyi tilning natijalari bo'yicha o'rganuvchining ko'nikmalarini oshirishga shuningdek har bir o'quvchining shaxsiy va akademik muvaffaqiyatini erishishga yordam beradi. [6. 8].

Clil yondashuvining didaktik imkoniyatlari o'z ichiga quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi;

**Ko'p tilli ta'lim:** Clil yordamida o'quvchilar bir necha tillarni o'rganish imkoniyatiga ega. Bu ularning kelajakdagi kasbida katta muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

**Fanlararo trening;** Clil o'qitish usuli muvaffaqiyatli bo'lishi uchun har bir fan fikridan tashqarida tushunchalar va kun tartibini integratsiya qilish kerak. Bu yordamida o'quvchilar bir vaqtning o'zida bir necha fanlardan saboq o'rganish imkoniyatiga ega.

**Kritik fikr yaratish:** Clil yondashuv o'quvchilarning bir hujjat yoki masalani ko'rib chiqish tahlil qilish va unga oid fikr bildirish imkoniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

**Amaliy ta'lim:** Clil yondashuv nazariy kurslarni o'rganishga qiyosan amaliy kurslarni o'rganishga ko'proq urg'u beradi. Bu o'quvchilarga fanlar, til va ijtimoiy o'qitishni amalga oshirish uchun ochiq imkoniyatlar yaratadi.

**Innovatsiya;** Bu yondashuv o'qitishda yangi usullarni qabul qilishga ko'proq urg'u beradi, ustida o'quvchilarga o'qituvchilarga fanlararo o'qitishning qiymatini ko'rsatadi va yangi fanlar o'rganilganida ularga o'zgartirishga moslashishga yordam beradi.

**Muloqot madaniyati:** Clil yondashuvi o'quvchilarni boshqa madaniyatlarga e'tibor berishga da'vat qiladi bu esa o'quvchilar orasida samimiy hammuloqotni oshiradi.

**Sog'liqni saqlash:** Clil o'quvchilarga muhitni saqlash va ekologik taroziga e'tibor berishning ahamiyatini o'rgatadi.



Bu imkoniyatlar Clil yondashuvi orqali yetkazilishi mumkin bo'lgan bir vqancha muhim natijalar uchun kafolatlashtiradi.

**Xulosa qilib aytganda**, talabalar shaxsiy ishlardan tashqari, ular hamkorlik qilishlari va loyiha guruhlarida ishlash uchun zarur ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishlari ham talab etiladi. Biz pedagoglar o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan, boshqalar bilan hamkorlik qila oladigan, o'z fikrini ifoda eta oladigan yoshlarni tarbiyalashimiz zarur. CLILni amalga oshirishning muhim sabablaridan biri bu o'qituvchilarga bugungi talabalarni hozirgi va kelajakdagi ish dunyosiga tayyorlashda yordam berishdir. Yoshlar ijtimoiylashuv jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan turli qiyinchiliklarga tayyor bo'lishlari kerak. Ular qachon va qanday ishlashlari nuqtai nazaridan mustaqil va moslashuvchan bo'lishi ijtimoiy zaruratga aylanib bormoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni.
2. Minyar-Beloruhev R.K. Ikki tilliizm mexanizmi va chet tilini o'qitishda ona tili muammosi // Maktabda xorijiy tillar. - 1991. - № 5. P.15-16. 3. Shcherba L.V. Til tizimi va nutq faoliyati. L., 1974. 354-son.
3. Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – 40 b.
4. Galskova N.D., Koryakovtseva N.F., Musnitskaya E.V., Nechaev N.N. Ikki tilli asosda ta'lim ilg'or til ta'limi tarkibiy qismi sifatida // Maktabdagi chet tillar. - 2003. - № 2. P.121.
5. M.Xoldorova, N.Fayziyeva, F.Rixsittilayeva. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2018
6. Qurbonova M.F. O'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda kouching metodikasi // Maktab va hayot. - Toshkent, 2020. Maxsus son №1, - B. 8-10.
7. Matlubayeva SH " Boshlang'ich ta'limda Clil texnologiyasi" Darslik – Chirchiq " Zebo Prints" 2024-172 bet.

